



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



No9  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 370 sahifa,  
2-sentyabr, 2025-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
<a href="#">Ibragimova Gulsanam Nematovna</a>	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri .....	22
<a href="#">Abduyev Sheroz</a>	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
<a href="#">Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li</a>	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili .....	30
<a href="#">Bobojonova Zarina Rashidovna</a>	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish .....	34
<a href="#">Isaqulova Baxtigul Xo'jamovna</a>	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi .....	38
<a href="#">Jumayeva Sadbarg Mirolimovna</a>	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili .....	42
<a href="#">Karimova Moxichehra Rixsibayevna</a>	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi .....	46
<a href="#">Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi</a>	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish .....	50
<a href="#">Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi</a>	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
<a href="#">Raximberganova Munajat Muzaffar qizi</a>	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development .....	57
<a href="#">Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna</a>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
<a href="#">Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi</a>	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
<a href="#">Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</a>	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati .....	69
<a href="#">Avazov G'oyibnazar Berdiyevich</a>	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish .....	72
<a href="#">Baratova Yulduz Asadullayevna</a>	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati .....	76
<a href="#">Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi</a>	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish .....	80
<a href="#">Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi</a>	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
<a href="#">O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</a>	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
<a href="#">Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna</a>	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan .....	98
<a href="#">Imomov I., Umirova D.</a>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
<a href="#">Iskandarova Munisa Bahodir qizi</a>	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish .....	107
<a href="#">Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna</a>	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari.....	110
<i>Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz</i>	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	113
<i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish .....	117
<i>Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvajon Xamidbek qizi</i>	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari .....	121
<i>Quronova Ismigul Xolmurod qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	126
<i>Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi</i>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari .....	131
<i>Sanayeva Surayyo Bobonazarovna</i>	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	139
<i>Shukurova Sevara Ilhomovna</i>	
Improving High Jump Techniques .....	143
<i>Tajimbetov Anvar Tengelbayevich</i>	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari.....	146
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников.....	149
<i>Ахмаджонова Нозима Нодиржон қизи</i>	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта .....	152
<i>Омонуллаева Дилофуза Асадулла қизи</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari.....	157
<i>Abduvaxobova Nodira</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirishning afzalliklari.....	160
<i>Ismailova Nozima Umaraliyevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnни tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati.....	164
<i>Utanbayeva Dildora Abdixadirovna</i>	
Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanish ....	168
<i>Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li</i>	
Oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish: empirik tadqiqot natijalari .....	171
<i>To'raqulov Akbar Rustam o'g'li</i>	
Gerontotexnologiya ijtimoiy-pedagogik innovatsiya sifatida .....	175
<i>Temirova Muyassar Abdulkarim qizi</i>	
O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish .....	180
<i>Raximova Surayyo Otabek qizi</i>	
Yoshlarni kasb tanlashda ruhiy tayyorgarlik va shaxsiy qobiliyatlarni baholash.....	183
<i>Biysenov Temirbek Taumuratovich</i>	
Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning ahamiyati.....	188
<i>Choriyeva Surayyo Choriyevna</i>	
Differences Between Computer-Based and Paper-Based Assessment in Inclusive Education.....	192
<i>Davidova Sayyora Sirojiddin kizi</i>	
Raqamli muhit sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining pedagogik modeli va tajriba-sinov natijalari.....	196
<i>Donayeva Nozimaxon Norbo'tayevna</i>	
Intellekt xarita yordamida o'quvchilarda "emotsional intellekt"ni rivojlantirish.....	201
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda o'yin faoliyatining psixologik-pedagogik ahamiyati.....	206
<i>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarishning nazariy asoslari .....	210
<i>Mannanova Nargiza Xaydarovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Ingliz tilini o'rgatishda ona tilidan keng foydalanishning salbiy va ijobiy jihatlari .....215 <b>Masharipova Kumushoy Amin qizi</b>
	The Relationship Between Critical Thinking and Reading Comprehension in Primary School Students.....218 <b>Mavlonova Dildora Shukhrat kizi</b>
	Tasviriy san'at mashg'ulotlarida zamonaviy metodlardan foydalanish .....222 <b>N. K. Musayeva, U. O. Ziyatova</b>
	Singapurning ta'lim falsafasi: korporativ madaniyatni ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish bilan integratsiyalash ...226 <b>Nishonov Xayrulla Xolmirzaevich</b>
	The Anthropocentric Paradigm in Modern Linguistics: Cognitive Linguistics and Linguacultural Studies in The Study of Language, Consciousness, and Culture .....230 <b>Rajabova Shaxlo Shodmonovna</b>
	Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirishda nostandart yondashuvning ahamiyati .....234 <b>Ramazonova Salomat Saidovna</b>
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlash .....238 <b>Saidova Gulruh Halim qizi</b>
	O'zbek oilalarida ota-ona va farzand munosabatlarini tashxis qilishning psixologik xususiyatlari (Farg'ona vodiysi misolida).....242 <b>Turg'unboeva Azizaxon G'ulomovna</b>
	Сущность и специфика развития билингвизма у детей дошкольников .....246 <b>Истамова Нигора Азимжановна</b>
	Zamonaviy rahbarning innovatsion boshqarish texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari .....249 <b>Xakimova Dildora Mashrabjonovna</b>
	Креативный подход к развитию лингвометодического мышления студентов-филологов .....253 <b>Ходжаниязова Айгуль Айтмуратовна</b>
	Umumta'lim maktablarida tarbiya darslarini tashkil etish ijtimoiy zarurat sifatida .....257 <b>Rashidova Gulnoza G'ulomovna</b>
	Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati .....261 <b>Xaydarov Sulaymon Amirqulovich</b>
	Xronotop nazariyasiga tahliliy yondoshuvlar va qarashlar.....265 <b>Avazov Vahabjon Tolibjon o'g'li</b>
	Ko'zi ojiz bolalarning rus tili darslarida nutqiy kompetensiyasini shakllantirishning psixopedagogik asoslari .....268 <b>Abduraximov Asror Sultonali o'g'li</b>
	Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblar haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....271 <b>Adizova Nilufar Quvondiq qizi</b>
	Zamonaviy media texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llashning zarurati .....274 <b>Alimov Asadulla Urokbayevich</b>
	Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning ta'siri .....278 <b>Alimova Umida Jumaboy qizi</b>
	Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....282 <b>Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna</b>
	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining rivojlanish tarixi va ommalashuvi.....286 <b>Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna</b>
	Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida raqamli resurslardan foydalanish orqali adabiy kompetensiyani rivojlantirish .....289 <b>Islomova Xafiza Azamatovna</b>
	Ona tili o'qitish metodikasi fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish.....293 <b>Ismadiyorova Nafisaxon Ibroximjon qizi</b>
	Axloqshunoslikning global muammolari va texnikaviy muhitning inson hayotiga ta'siri.....298 <b>Kozimova Nargiza Istam qizi</b>
	Ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompetentlikni oshirish va baholash usullarining xalqaro tahlili ....303 <b>Mamatqulova Sanobar Ismatillayevna, Eshmurzayev Yigitali Shokirovich, Kadirova Durdonaxon Rustamovna</b>
	Tabiiy fanlarda bilingval ta'lim va CLIL yondashuv .....309 <b>Mannobxonova Muqaddamxon O'ktamxon qizi</b>



Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pragmatik muammolar va ularning yechimlari .....	313
<b>Maxmudova Nigoraxon Boyqo'zi qizi</b>	
Poshshoxo'ja Ibn Abdurahobxo'janing "Miftoh ul-adl" asaridagi pedagogik qarashlari.....	317
<b>Muzaffarova Farida Muxtor qizi</b>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida matn tushunishni shakllantirishda germenevtik metodlarning nazariy asoslari .....	321
<b>Nazirova Shaxnoza Odinajon qizi</b>	
Axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishda raqamli gigiyena va internet xavfsizligi.....	324
<b>Ramazonov Jahongir Djalolovich</b>	
Informatika fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar .....	328
<b>Sadinov Otabek Vaxodirovich</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijtimoiylashuvida musiqa fanining ta'siri.....	332
<b>Shahobiddinova Zilola Orif qizi</b>	
Madaniy-ijtimoiy va ta'limiy omillarning bolalarning aqliy rivojlanishiga ta'siri .....	335
<b>Shirinov Otabek Tualovich</b>	
Tadqiqot metodi vositasida o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish.....	338
<b>Suyarov Kusharbay Tashbayevich</b>	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasi va nutq madaniyati.....	342
<b>Saipova Hilola Abduhamitovna</b>	
"Ekologik ochiq o'yinlar" 5–7 yoshli bolalar uchun.....	346
<b>Tangirov Zoir Xo'jakulovich</b>	
Yuqori malakali taekvondochilarni o'ziga xos genetik xususiyatlarini hisobga olgan holda sport seleksiyasi.....	350
<b>Tursunaliyev Ulug'bek Shavkatjon o'g'li</b>	
Musiqa maktabi o'quvchilarida madaniy qadriyatlar va ustoz-shogird an'alarining uzluksiz rivojlanishi ..	353
<b>Seytanov Bayrambay</b>	
Imom Buxoriyning "Al-Jome' as-sahih" asari talabalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish omili sifatida .....	356
<b>Abduhalimova Nigora</b>	
O'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda AKT vositalaridan foydalanishning metodik asoslari.....	359
<b>Abdullayeva Zarnigor Usubjon qizi</b>	
Коммуникативная компетентность и культура общения преподавателей начальных классов .....	364
<b>Арысланбаева Анора Бердаховна</b>	
Проблемы методической подготовки учителей в развитие дискурсивной компетенции по РКИ у учащихся уровня В1 средних общеобразовательных школ Узбекистана .....	366
<b>Набиева Зарнигор Муминжон кизи</b>	



# O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA AKT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI

UDK: 37.091.3

Abdullayeva Zarnigor Usubjon qizi  
Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti (PhD)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalaridan foydalanishning metodik asoslari yoritilgan. Nutqiy kompetensiya tushunchasi, uning zamonaviy ta'limdagi o'rni va ahamiyati, shuningdek, AKT vositalarining bu kompetensiyani shakllantirishdagi roli tahlil etilgan. Maqolada interaktiv taqdimotlar, audio-video materiallar, onlayn platformalar, virtual muloqot muhitlari va raqamli resurslarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi misollar bilan ko'rsatib berilgan. Shuningdek, muammoli ta'lim, loyihaviy yondashuv va muloqotga asoslangan metodikaning afzalliklari ochib berilgan. Maqola pedagoglarga nutqiy kompetensiyani samarali rivojlantirish uchun AKT vositalarini qanday maqsadli va metodik asosda qo'llash mumkinligini tushunishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** nutqiy kompetensiya, AKT vositalari, metodik asoslar, interaktiv ta'lim, ona tili darsi, raqamli resurslar, o'quvchi faoliyati, kommunikativ kompetensiya, ta'lim texnologiyalari, muloqot malakasi.

**Abstract:** This article highlights the methodological foundations of using information and communication technology (ICT) tools in developing students' speech competence. The concept of speech competence, its role and significance in modern education, as well as the role of ICT tools in shaping this competence are analyzed. The article provides examples of integrating tools such as interactive presentations, audio-video materials, online platforms, virtual communication environments, and digital resources into the educational process. Additionally, the advantages of methodological approaches such as problem-based learning, project-based approach, and communicative methodology are revealed. The article helps educators understand how to purposefully and methodically apply ICT tools to effectively develop speech competence.

**Key words:** speech competence, ICT tools, methodological foundations, interactive learning, native language lesson, digital resources, student activity, communicative competence, educational technologies, communication skills.

**Аннотация:** В данной статье освещены методические основы использования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в развитии речевой компетенции учащихся. Проанализированы понятие речевой компетенции, её место и значение в современном образовании, а также роль ИКТ в формировании этой компетенции. В статье приведены примеры интеграции в образовательный процесс таких средств, как интерактивные презентации, аудио- и видеоматериалы, онлайн-платформы, виртуальные коммуникационные среды и цифровые ресурсы. Кроме того, раскрыты преимущества методических подходов, таких как проблемное обучение, проектный подход и коммуникативная методика. Статья помогает педагогам понять, как целенаправленно и методически грамотно применять ИКТ для эффективного развития речевой компетенции.

**Ключевые слова:** речевая компетенция, средства ИКТ, методические основы, интерактивное обучение, урок родного языка, цифровые ресурсы, учебная деятельность, коммуникативная компетенция, образовательные технологии, навыки общения.

## KIRISH

Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol, zamonaviy texnologiyalardan foydalana oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat. Bu vazifani amalga oshirishda o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni, xususan, nutqiy kompetensiyani shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqiy kompetensiya – bu shaxsning og'zaki va yozma muloqotda erkin ishtirok etish, fikrini aniq va tushunarli ifoda eta olish, turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda samarali muloqotga kirisha olish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiya nafaqat til darslarida, balki barcha fanlarda o'quvchining bilimini mustahkamlovchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi vosita sifatida qaraladi. Bugungi kunda axborot-kommu-

nikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalarining ta'lim jarayoniga jadal kirib kelishi, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. AKT vositalari yordamida o'quvchilar bilan interaktiv muloqotni tashkil qilish, mustaqil fikrlashni rag'batlantirish, audio va video materiallar orqali til sezgirligini oshirish, virtual maydonlarda yozma va og'zaki nutqni rivojlantirish imkoniyati yuzaga kelmoqda. Bu esa pedagoglardan ta'lim jarayonini zamon talablariga mos ravishda tashkil etish, darslarni texnologik jihatdan boyitish, metodik yondashuvlarni takomillashtirishni talab qiladi. Ushbu maqolada o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida AKT vositalaridan foydalanishning metodik asoslari, ularning amaliy ahamiyati, samarali yondashuvlari va qo'llash usullari tahlil etiladi. Shuningdek, turli interaktiv platformalar, raqamli ta'lim vositalari va ularning o'quvchilarning muloqotga kirishish, fikr bildirish va ijodiy izlanishlar olib borishdagi o'rniga e'tibor qaratiladi.

Nutqiy kompetensiya – bu o'quvchining o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq, tushunarli, mantiqiy ifodalash, muloqotda erkin ishtirok etish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiya lisoniy savodxonlikni, muloqot ko'nikmalarini, ijodiy fikrlashni, madaniy kontekstda fikr bildirishni o'z ichiga oladi. AKT vositalarining imkoniyatlari nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda quyidagi sharoitlarni yaratadi:

- interaktiv taqdimotlar yangi mavzularni vizual ko'rinishda yetkazib berib, o'quvchilarda qiziqishni oshiradi;
- audio va video materiallar tinglab tushunish, talaffuz, intonatsiya va ifoda usullarini o'rganish imkonini beradi;
- onlayn test va platformalar o'zlashtirishni monitoring qilish va differensial yondashuvni qo'llash imkonini beradi;
- virtual muloqot muhiti (forumlar, chatlar, vebinarlar) o'quvchilar o'z fikrlarini yozma yoki og'zaki shaklda ifodalash imkoniyatiga ega bo'lishlariga yordam beradi;
- interaktiv lug'atlar va matn muharrirlari yozma nutq ustida ishlashda qo'llab-quvvatlaydi.

O'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini AKT vositalari yordamida shakllantirishda:

- muammoli ta'lim metodikasi – darsda interaktiv topshiriqlar, savol-javoblar orqali o'quvchini mustaqil fikrlashga undash;
- loyihaviy yondashuv – AKT vositalaridan foydalangan holda ijodiy prezentatsiyalar va videoroliklar tayyorlash;
- muloqotga asoslangan metodika – forumlar va onlayn platformalarda bahs-munozaralarda ishtirok etish;
- o'yinli metodlar – nutqiy vazifalarga asoslangan ta'limiy o'yinlar orqali kompetensiyani shakllantirish;
- individual yondashuv – har bir o'quvchining til bilish darajasiga mos topshiriqlarni tanlash kabi samarali yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlarda asosan til o'rganish jarayonida muloqotga tayyorlik, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, shuningdek, o'quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Til o'rgatishda kommunikativ yondashuvning ustuvorligi haqida I.A. Zimnyaya (2001) o'z ishlarida ta'kidlab o'tgan. Unga ko'ra, til – bu shunchaki bilimlar majmui emas, balki shaxslararo muloqot vositasi bo'lib, uni o'rgatishda muloqotga asoslangan metodlar ustuvor bo'lishi lozim. Zimnyaya nutqiy kompetensiyani umumiy kommunikativ kompetensiyaning asosiy komponenti sifatida ko'rsatadi.

Mahalliy olim M.T. Tohirova (2018) o'zining “Ona tili ta'limida zamonaviy texnologiyalar” nomli tadqiqotida ta'limda AKT vositalarining nutqiy kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rnini haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Texnologiyalardan oqilona foydalanish o'quvchilarni faollashtiradi, ularning muloqot madaniyati va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.” Bu g'oya o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvni tasdiqlaydi.

Shuningdek, V.V. Grigoreva (2014) interaktiv texnologiyalar orqali til o'rgatish metodikasi haqida gapirar ekan, bu vositalarning o'quvchilar ongida chuqur iz qoldirishi, bilimlarning mustahkam va uzoq muddatli bo'lishiga xizmat qilishini qayd etadi. U nutqiy faollikni oshirishda videodarslar, audio topshiriqlar, virtual muhitlar, bloglar va forumlarning roliga e'tibor qaratgan.



Xalqaro miqyosda esa C. Warschauer (2004) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar vositasida yozma muloqotni o'rgatishning afzalliklari tahlil qilingan. U onlayn bloglar, elektron pochta, forumlar orqali fikr almashish, tanqidiy fikrlash va til sezgirligini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Yana bir tadqiqotda – M. Prensky (2001) “Digital Natives, Digital Immigrants” maqolasida o'quvchilarning axborot texnologiyalari bilan bog'liq kompetensiyalarini hisobga olgan holda yangi metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligi ta'kidlanadi. Uning fikriga ko'ra, bugungi o'quvchi AKT vositalariga mos ta'lim muhitida o'zini qulay his qiladi va ularning yordamida samarali o'rganadi.

Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nutqiy kompetensiyani shakllantirishda AKT vositalaridan foydalanish faqatgina texnik vosita emas, balki metodik vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega. Shuning uchun til ta'limi jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish – ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot doirasida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishning samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks metodik yondashuv qo'llanildi. Dars jarayonida o'quvchilarning nutqiy faolligi, muloqotga kirishish holatlari, savol-javoblarda ishtirok darajasi kuzatildi. O'quvchilarning o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda ifoda etishdagi qiyinchiliklari, AKT vositalariga munosabati, ta'lim vositalarining samaradorligi haqida ma'lumot to'plandi. Eksperimental guruhda AKT vositalari bilan boyitilgan metodikalar asosida darslar olib borildi, nazorat guruhida esa an'anaviy metodlardan foydalanildi. Eksperiment 6 hafta davomida olib borildi. O'qituvchilar bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar o'tkazilib, ularning texnologiyalardan foydalanishdagi yondashuvlari, qiyinchiliklari va muvaffaqiyatlari haqida ma'lumot olindi.

Nutqiy kompetensiyaning quyidagi komponentlari baholandi:

1. Og'zaki nutq ravonligi va mantiqiyliigi;
2. Yozma nutqda fikrni aniq ifodalash;
3. Leksik va grammatik to'g'rilik
4. Matn tuzish va bayon qilish ko'nikmalari
5. Interaktiv muloqotda faol ishtirok.

1-jadval: Eksperimental va nazorat guruhlarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasi rivojlanishining taqqoslamali tahlili

Nutqiy kompetensiya ko'rsatkichlari	Eksperimentdan oldin (%)	Eksperimentdan keyin (%)	O'sish (%)	Nazorat guruhida o'sish (%)
Og'zaki nutq ravonligi va mantiqiyliigi	42	78	+36	+10
Yozma nutqda fikrni aniq ifodalash	38	75	+37	+12
Grammatik va leksik to'g'rilik	44	80	+36	+11
Matn strukturasi va bayon qilish ko'nikmasi	40	77	+37	+13
Interaktiv muloqotda faol ishtirok	35	79	+44	+9

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot zamonaviy pedagogika, kommunikativ til o'rgatish nazariyasi, AKT asosidagi ta'lim texnologiyalari va kompetensiyaviy yondashuv asosida olib borildi. Unda quyidagi metodologik asoslar inobatga olindi:

- **Konstruktivizm:** o'quvchi bilimi o'z tajribasi va faoliyati asosida shakllanishi kerak.
- **Kompetensiyaviy yondashuv:** ta'lim natijasi sifatida bilim emas, balki amaliy ko'nikma va kompetensiyalar muhim hisoblanadi.
- **Axborot-kommunikatsion texnologiyalar integratsiyasi:** texnologiyalarni ta'lim jarayonining ajralmas elementi sifatida ko'rish.

**2-jadval: AKT asosidagi va an'anaviy metodik yondashuvlarning taqqosiy tahlili**

Ko'rsatkichlar	AKT asosidagi metodika	An'anaviy metodika
Ta'lim vositalari	Interaktiv taqdimotlar, video/audio materiallar, onlayn testlar	Darslik, doska, kitob, yozma topshiriqlar
Muloqot shakli	Onlayn forumlar, chatlar, guruhli ishlar	O'qituvchi–o'quvchi markazli muloqot
Nutqiy kompetensiyani shakllantirish	Multimedia asosida tinglash, gapirish, yozish, bahslashish	Yozma ish, diktant, og'zaki bayon
Darsda o'quvchi faolligi	Yuqori: interaktiv faoliyat, mustaqil izlanishlar	O'rtacha: asosan o'qituvchi tashabbuskor
Differensial yondashuv imkoniyati	Platformalar orqali individual topshiriqlar berish mumkin	Barcha o'quvchilarga bir xil metodika qo'llaniladi
Baholash usullari	Onlayn testlar, refleksiya, audio/video topshiriqlar	Yozma ishlar, og'zaki savol-javob
O'quvchi motivatsiyasi	Yaxshi: texnologiyalar orqali qiziqish ortadi	Nisbatan past: bir xil uslub o'quvchini tez toliqtiradi
O'qituvchining roli	Yo'naltiruvchi, fasilitator	Asosiy axborot manbai, nazoratchi
Ko'nikmalarning amaliyotga yo'naltirilganligi	Yuqori: real muloqot, hayotiy vaziyatlar simulatsiyasi	Cheklangan: nazariyaga asoslangan

Toplangan ma'lumotlar statistik tahlil vositalari (Excel, SPSS) yordamida qayta ishlanib, eksperimental va nazorat guruhlar natijalari taqqoslab chiqildi. Talabalarning nutqiy kompetensiyasi quyidagi ko'rsatkichlar asosida baholandi: Matn strukturasi va mazmuni So'z boyligi va til vositalaridan foydalanish Grammatik va leksik to'g'rilik Nutqning mantiqiyli va ravonligi Tahlil natijalari statistik usullar asosida qayta ishlanib, grafik va jadval shaklida umumlashtirildi. Ushbu tadqiqotda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda AKT vositalarining samaradorligi tahlil qilindi. Eksperimental guruhda interaktiv texnologiyalar yordamida olib borilgan darslardan so'ng nutqiy ko'nikmalarda sezilarli ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Jumladan, og'zaki nutqning ravonligi va mantiqiyli, yozma nutqda fikrni aniq ifodalash, shuningdek, grammatik va leksik jihatdan to'g'ri so'zlashish darajasi ortdi.

Olingan natijalar Zimnyaya (2001) va Grigoreva (2014) tadqiqotlari bilan uyg'unlikda bo'lib, ular AKT vositalari til o'rganish jarayonini faollashtirish va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatgan. Ayniqsa, video va audio materiallardan foydalanish nutqiy faollikni oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Eksperiment davomida interaktiv platformalarning (Kahoot, Quizizz, Padlet) o'quvchilarda motivatsiyani oshirishga, shuningdek, og'zaki va yozma muloqotga faol jalb qilishga xizmat qilgani kuzatildi. Bu topilmalar Prensky (2001) ning "Digital Natives" kontseptsiyasini tasdiqlaydi, ya'ni zamonaviy o'quvchilar AKT bilan boyitilgan ta'lim muhitida samaraliroq o'rganadi. Nazorat guruhi bilan solishtirganda, an'anaviy metodlar asosida o'qigan o'quvchilar nutqiy kompetensiyada sezilarli o'sish ko'rsatgan bo'lsa-da, ularning rivojlanishi eksperimental guruhdagidan past darajada bo'ldi. Bu esa AKT vositalarining ta'lim jarayonini interaktiv, qiziqarli va o'quvchiga yo'naltirilgan qilishdagi ahamiyatini yana bir bor isbotladi. Shuni ta'kidlash kerakki, AKT vositalaridan samarali foydalanish uchun o'qituvchilarning texnologik savodxonligi va metodik tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot davomida ayrim o'qituvchilar texnologiyalarni qo'llashda ba'zi qiyinchiliklarga duch kelgani kuzatildi, bu esa o'quv jarayonining sifatiga ta'sir qilishi mumkin. Shu bois, o'qituvchilarni doimiy ravishda malaka oshirish va zamonaviy texnologiyalarni o'rganishga jalb qilish zarur. Umuman olganda, tadqiqot natijalari AKT vositalaridan foydalanish til ta'limida nutqiy kompetensiyani samarali rivojlantirish uchun asosiy vosita ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning nafaqat bilimlarini oshirish, balki ularni ijodiy fikrlash va mustaqil muloqotga tayyorlashga xizmat qiladi.

## XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali metodik vosita sifatida xizmat qiladi. Eksperimental guruhda interaktiv va multimedia asosidagi ta'lim jarayoni o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshiladi, bu esa ularning tilga bo'lgan qiziqishini hamda ta'lim jarayoniga faol jalb



qilininishini ta'minladi. AKT vositalari yordamida ta'lim jarayoni yanada interaktiv, o'quvchiga yo'naltirilgan va individual xususiyatlarni hisobga oluvchi holga keldi. Shu bilan birga, o'qituvchilarning texnologiyalardan samarali foydalanish uchun malaka oshirishlari va metodik tayyorgarliklari muhim omil hisoblanadi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, AKT vositalarini ona tili va adabiyot fanida nutqiy kompetensiyani shakllantirish hamda rivojlantirishda joriy qilish o'quv jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida bu metodikani yanada takomil-lashtirish va boshqa ta'lim bosqichlariga moslashtirish imkoniyatlari o'rganilishi zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zimnyaya, I.A. (2001). Kompetentsiya kak rezultat obucheniya i kriterij otsenki rezul'tatov obucheniya. Moscow: Izdatel'stvo "Institut obshchego obrazovaniya".
2. Grigoreva, T.V. (2014). "Information and Communication Technologies as a Means of Developing Students' Communicative Competence." *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 152, 275–280. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2014.09.226>
3. Prensky, M. (2001). "Digital Natives, Digital Immigrants." *On the Horizon*, 9(5), 1–6. <https://doi.org/10.1108/10748120110424816>
4. Kolesnikov, A.V. (2017). "Metodika ispol'zovaniya informatsionno-kommunikatsionnykh tekhnologiy v obuchenii russkomu yazyku kak inostrannomu." *Vestnik pedagogiki*, 3, 45–52.
5. Khodakova, O.V. (2019). "Using ICT Tools in Teaching Foreign Languages to Enhance Speaking Skills." *Journal of Language and Education*, 5(2), 34–42. <https://doi.org/10.17323/jle.2019.8677>
6. Uzbek National Education Portal. (2023). *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha metodik qo'llanmalar*. Tashkent: UzEdu.
7. Shokirov, D.S. (2020). "Innovatsion texnologiyalar yordamida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish." *O'zbek tilshunosligi*, 2, 88–96.
8. Warschauer, M. (2000). *Language Learning and Technology: Past, Present, and Future*. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Benson, P. (2011). *Teaching and Researching Autonomy in Language Learning*. Harlow: Pearson Education.
10. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.